



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI SANOAT STATISTIKA BO'LIMI



TOSHKENT SHAHRIDA 2019-YIL YANVAR- DEKABR OYLARI UCHUN SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari tomonidan **58 748,5 mld. so'mlik** sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishiga erishildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi **111,1%** ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat hajmi indeksi **111,0 %**, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash **122,8 %**, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash **117,0 %** va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish **106,0 %** ni tashkil qiladi.

Sanoat mahsuloti hajmi **58748,5 mld. so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi **111,1 %** ni tashkil etdi.


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi **23 050,0 mld. so'mni** va o'sish sur'ati **109,2 %** tashkil etdi.

Iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi **39,2%** ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **67,4 %**

2019 YILNING JANVAR-DEKABR OYLARIDA ASOSIY IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA SANOAT ISHLAB CHIQARISH TARKIBI


Umumiy hajmdagi ulushi




**Tog'-kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash**
(sanoat mahsulotlari ishlab
chiqarish indeksi - 122,8 %)



Ishlab chiqaradigan sanoat
(sanoat mahsulotlari ishlab
chiqarish indeksi - 111,0 %)




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash
va havoni konditsiyalash**
(sanoat mahsulotlari ishlab
chiqarish indeksi - 117,0 %)



**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya
tizimi, chiqindilarni yig'ish va
utilizatsiya qilish**
(sanoat mahsulotlari ishlab
chiqarish indeksi - 106,0%)

TOG‘-KON SANOATI VA OCHIQ KONLARNI ISHLASH

Iqtisodiy tarmoqlar kesimida o‘rganilganda, joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 3452,0 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi va jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotidagi ulushi 5,9 % ni tashkil etgan.



Tog‘-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo‘yicha tabiiy gaz va xom neft qazib olish hajmi o‘tgan oyga nisbatan 56,9 % ga oshdi va boshqa tog‘-kon sanoati faoliyati esa 38,9 % ga kamaydi.



TOG‘-KON SANOATI VA OCHIQ KONLARNI ISHLASH MAHSULOTLARI

TABIY GAZ VA XOM NEFT QAZIB OLİSH



2018-yil yanvar-dekabr oylarida
2171,2 mln. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan

2018-yil yanvar-dekabrga
nisbatan 165,7 % da

2019-yil yanvar-dekabr oylarida
3292,2 mln. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan

BOSHQA TOG‘-KON SANOATI



2018-yil yanvar-dekabrdan
122,0 mln. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan


2018-yil yanvar- dekabrga
nisbatan 60,1 % da

2019-yil yanvar-dekabr oylarida
148,0 mln. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan

ISHLAB CHIQARISH (QAYTA ISHLASH) SANOATI

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarish sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 51 169,5 mlrd. so‘mni va o‘tgan yilga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 111,0 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarish sanoati tarkibida yuqori texnologiyali ishlab chiqarish ulushi – 5,7 % ni, o‘rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish – 25,2 %, o‘rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish – 34,0 %, quyi texnologiyali ishlab chiqarish esa – 35,1 % ni tashkil etdi.

2019 - yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



O‘z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan kiyim ishlab chiqarish sohasi 4,3 % ga, boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish 8,5 % ga kamaydi.

Shu bilan bir qatorda, elektr uskunalarini ishlab chiqarish 36,8 % ga, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish 29,7 % ga oshdi.

ISHLAB CHIQARISH (QAYTA ISHLASH) SANOATI

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI



2018-yil yanvar-dekabrda
4097,0 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan

2018-yil yanvar-dekabrga
nisbatan 104,5 % da



2019-yil yanvar-dekabrda
5035,2 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan

ICHIMLIKLER ISHLAB CHIQARISH



2018-yil yanvar-dekabrda
1805,0 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan

2018-yil yanvar-dekabrga
nisbatan 88,1 % da



2019-yil yanvar-dekabrda
2528,1 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan

ISHLAB CHIQARISH (QAYTA ISHLASH) SANOATI

TEKSTIL MAHSULOTLARI



2018-yil yanvar-dekabrda
2595,2 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan



2018-yil yanvar-dekabrga
nisbatan 122,8 % da

2019-yil yanvar-dekabrda
3943,7 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan

FARMATSEVTIKA MAHSULOTLARI VA PREPARATLAR



2018-yil yanvar-dekabrda
991,7 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan



2018-yil yanvar-dekabrga
nisbatan 130,5 % da

2019-yil yanvar-dekabrda
1312,0 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan

AVTOTRANSSPORT VOSITALARI, TREYLERLAR VA YARIM TIRKAMALAR



2018-yil yanvar-dekabrda
276,0 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan




2018-yil yanvar-dekabrga
nisbatan 81,2 % da

2019-yil yanvar-dekabrda
380,7 mlrd. so'mlik mahsulot
ishlab chiqarilgan



ELEKTR, GAZ, BUG' BILAN TA'MINLASH VA HAVONI KONDITSIYALASH

2019-yil yanvar-dekabr oylarida korxonalar tomonidan elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' uzatish va havoni konditsiyalash tizimlari sohasi bo'yicha 3203,7 mld. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi - 117,0 % ni tashkil etdi.



Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' uzatish va havoni konditsiyalash tizimlari

Gazsimon yoqilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash



Elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' uzatish va havoni konditsiyalash tizimlari sohasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi 9,8 % ga ko'paydi.

Gazsimon yoqilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash sohasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi 54,5 % ga o'sdi.

SUV BILAN TA'MINLASH, KANALIZATSIYA TIZIMI, CHIQINDILARNI UTILIZATSIYA QILISH.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 923,2 mld. so'mni (jami ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmining 1,6 % ni) tashkil etganligi kuzatildi.

Bunda 2019-yil yanvar-dekabr oylarida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,0 % ga ko'paygan.

ISTE'MOL TOVARLARINI ISHLAB CHIQARISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iste'mol tovarlari va xizmatlar bozorini rivojlantirish hamda takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishiIni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahridagi sanoat korxonalarini tomonidan 23 050,0 mld. so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarildi va 2018-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,2 % ni tashkil etdi. Umumiy sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarishda iste'mol tovarlarining ulushi 39,2 %.

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati, % da




ISTE'MOL TOVARLARINI ISHLAB CHIQARISH

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 6 711,8 mld. so‘mni tashkil etib, jami iste’mol tovarlaridagi ulushi 29,1 %, nooziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 15 404 mld.so‘m, jami iste’mol tovarlaridagi ulushi 66,8 %, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish 934,2 mld.so‘m hisoblanib jami iste’mol tovarlaridagi ulushi 4,1 % tashkil etdi.

2019-YILNING YANVAR-DEKABR OYLARIDA TUMANLARNING JAMI ISTE'MOL TOVARLARINI ISHLAB CHIQARISH HAJMIDAGI ULUSHI, % da

Toshkent shahrida iste’mol tovarlarini ishlab chiqarish bo'yicha eng ko'p ulush Bektemir (shahar iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmida, 14,2%), Chilonzor (12,4 %), Mirzo Ulug'bek (10,5 %), Yashnobod (10,2%) va Olmazor (9,1%) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Shu bilan birga eng kam ulush Yakkasaroy (5,7%), Uchtepa (6,1 %) va Yunusobod (6,4 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.





**2019-YILNING YANVAR-DEKABR OYLARIDA HUDUDLARDA ISTE'MOL
TOVARLARINI ISHLAB CHIQARISH HAJMINING O'SISH SUR'ATI, % DA**



Shu o'rinda iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda eng yirik o'sish sur'atlari Bektemir (126,6 %), Mirobod (112,6 %) va Sergeli tumanlarida (108,3 %) kuzatilgan.

Eng kam o'sish sur'atlari esa Uchtepa (102,4 %), Olmazor (102,7 %) tumanlariga to'g'ri keladi.




HUDUDLARNING SANOAT ISHLAB CHIQARISHDAGI O'RNI

Toshkent shahrida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Mirobod (Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmi hajmining 13,9 % ulushini), Yashnobod (12,2 %), Mirzo Ulug'bek (10,7 %), Bektemir (10,3 %), Shayxontohur (9,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuning bilan birga eng kam ulush Uchtepa (5,8 %), Yakkasaroy (6,4 %), Chilonzor (6,4 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2019-YILNING YANVAR-DEKABR OYLARIDA HUDUDLARNING JAMI SANOAT ISHLAB CHIQARISH HAJMIDAGI ULUSHI, % da






SANOAT ISHLAB CHIQARISHDA KICHIK BIZNESNING ULUSHI

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahrida sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – 67,4 % ni tashkil etgan.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulush Olmazor (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 90,3 %), Yunusobod (88,7 %), Yakkasaroy (88,0) va Chilonzor (87,8 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Mirobod (28,5 %), Mirzo Ulug'bek (41,9 %) va Shayxontohur (51,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

HUDUDLAR BO'YICHA KICHIK BIZNESNING SANOAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISHDAGI ULUSHI, % DA





TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA

BOSHQARMASI SANOAT

STATISTIKASI BO`LIMI



TAYYOR MAHSULOTLAR, BUTLOVCHI QISMLAR VA MATERIALLAR ISHLAB CHIQARISHNI MAHALLIYLASHTIRISH DASTURINING AMALGA OSHIRILISHI

Respublika sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 292 ta loyiha bo'yicha 6509,1 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, 106,3 mln. AQSH dollari miqdorida mahalliylashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan ish o'rnlari soni 5911 tani tashkil etdi. Shu bilan birga, 2018-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan mahalliylashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmi 2,3 martaga oshdi.

TAYYOR MAHSULOTLAR, BUTLOVCHI QISMLAR VA MATERIALLAR ISHLAB CHIQARISHNI MAHALLIYLASHTIRISH DASTURINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	2018-yil yanvar-dekabr	2019-yil yanvar-dekabr
Loyihalar soni, birlik	446	292
Korxonalar soni, birlik	194	117
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	4151,6	6509,1
Eksportga qilingan mahalliylashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSH dollar	46,1	106,3
Yaratilgan yangi ish o'rnlari, birlik	337	5911